

**“Qishloq xo‘jaligi” yo‘nalishidagi ilmiy faoliyatga oid davlat maqsadli dasturi doirasida dolzarb muommalarni hal etish
va aniq mahsulotga qaratilgan
MAQSADLI DASTURI**

T/r	Loyiha mavzusi	Loyiha bajarilishidan kutilayotgan natija
4.	Global iqlim o‘zgarishi sharoitida teskari osmos texnologiyasida tozalangan kollektor-zovur suvlaridan tomchilatib sug‘orishda foydalanish orqali sho‘rlangan tuproqlarning ekologik-meliorativ holatini yaxshilashning ilmiy-amaliy asoslarini ishlab chiqish. 	Tadqiqot shakli: Amaliy Ilmiy tadqiqot natijalari: -kollektor-zovur suvlarini teskari osmos texnologiyasida tozalash natijasida suv sifatining o‘zgarishi baholanadi; -tozalangan suvdan tomchilatib sug‘orishda foydalanishning sho‘rlangan tuproqlarning tuz rejimi va ekologik-meliorativ holatiga ta’siri aniqlanadi; -sho‘rlangan tuproqlarda tozalangan kollektor-zovur suvlari bilan tomchilatib sug‘orishning maqbul sug‘orish me’yorlari ishlab chiqiladi; -tozalangan suvdan foydalanish natijasida tuproq sho‘rlanishining kamayishi va meliorativ holatining yaxshilanish darajasi baholanadi; -tozalangan kollektor-zovur suvlari bilan tomchilatib sug‘orishning qishloq xo‘jaligi ekinlari hosildorligi va suvdan foydalanish samaradorligiga ta’siri baholanadi; -sho‘rlangan tuproqlarda kollektor-zovur suvlaridan foydalanishning iqtisodiy samaradorligi hisoblanadi; -sho‘rlangan tuproqlarning meliorativ holatini yaxshilash bo‘yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqiladi. Natijalarni sinovdan o‘tkazish. Olingan natijalar Qishloq xo‘jaligi vazirligi hamda ilmiy-tadqiqot institutlarida sinovdan o‘tkaziladi va ularning amaliyotda foydalanish uchun qabul qilinganligi to‘g‘risida Ekologiya va iqlim o‘zgarishi milliy qo‘mitasining xulosasi olinadi. Ilmiy natijalarni chop etish. Olingan tadqiqot natijalari intellektual mulk obyektlari uchun hujjatlar tayyorlanadi. Tadqiqot natijalari asosida tavsiyanomalar, o‘quv qo‘llanmalar, hamda nufuzli jurnallarda va <i>Web of Science/Scopus</i> ma’lumotlar bazasida indeksatsiyalangan jurnallarda maqolalar chop etiladi Izoh. Ushbu mavzuga taqdim etiladigan ilmiy loyihalar Ekologiya va iqlim o‘zgarishi milliy qo‘mitasining qo‘llab-quvvatlash xati mavjud bo‘lganida qabul qilinadi.